



"O'zbekneftgaz" AJ
"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ
MTRB xizmati
RO'YXATGA OLINDI
0741 081-4041
2024 14 02

"TASDIQLAYMAN"

"Shurtan GKM" MChJ
Bosh direktor o'rinbosari

E. Kuvatov

« 14 » 02 2024 yil.

"Shurtan GKM" MChJ uchun
suv sarfini hisoblash asbobini
xarid qilishga

TEXNIK TOPSHIRIQ

ShGKM — 2024y.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Nomi
Suv sarfi hisoblagichi.(Водомер)
1.2 Mahsulotni sotib olinishidan asosiy maqsad
Asos: O'zbekneftgaz" AJ Boshqaruv raisi B. Sidiqovning 2023 yil 8 noyabr kunidagi №01-10-1-1669- sonli topshirig'iga binoan O'zbekneftgaz" AJ tizimidagi boshqarma va korxonalar hamda neft bazalar tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekiladigan daraxt ko'chatlari ekilishi belgilangan maydonlarga tomchilatib sug'orish tizimini o'rnatish. Maqsad: Tomchilatib sug'orish tizimiga o'rnatish uchun
1.3 Yangiligi to'g'risida ma'lumot (i/chiqarilgan yili)
Mahsulot yangi va 2023 yilda ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak
1.4 Ishlab chiqarish bosqichlari/tayyorlanishi
Ultratovushli suv sarfini hisoblagich Tashkilot standarti va 1.2 bandeda ko'rsatilgan ta'lablari asosida me'yoriy talablarga muvofiq ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak.
1.5 Ishlab chiqarish va tayyorlash uchun hujjatlar/tayyorlanishi
O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilayotgan normativ va rahbariyat hujjatlar.

2. Qo'llanish sohalari

O'zbekneftgaz" AJ tizimidagi boshqarma va korxonalar hamda neft bazalarda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekilgan va ekilishi rejalashtirilgan daraxt ko'chatlari tomchilatib sug'orish tizimini o'rnatiladigan maydonlarga.

3. Texnik talablar

3.1 Asosiy texnik talablar

1. O'lchash turi - Turbinali
2. 5 ° C dan 50 ° C gacha bo'lgan haroratda quvur orqali oqadigan oqova suvi hajmini va suv ta'minoti tarmog'ida 1,6 MPa (16 kgf / sm²) dan oshmaydigan ish bosimini o'lchash.
3. Diametri - Ø 150 mm
4. Hisoblash usuli – m³/soat
5. Suv hisobi turi - Sovuq suv
6. Ulanish – gardishli(фланцевое)
7. Sertifikat (yillar) - jismoniy shaxslar uchun 8 / yuridik shaxslar uchun 4
8. Suv hisoblash uskunasi jamlanmasida bo'lishi kerak (Suv hisoblagich, prokladka, birlashtiruvchi flansets,pasport, sertifikat, qo'llanma).
9. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan.
10. Og'irligi – 25000 g (dan oshmaydigan).

3.2 Yorliqqa talablar

Suv sarfini hisoblash uskunasi - Yorliqda quyidagilar mavjud bo'lishi kerak:

- Mahsulot nomi;
- Ishlab chiqarilgan joy nomi;
- Ishlab chiqarilgan korxonaning mahsulot nishoni (mavjudligi);
- Kafolat muddatlari;
- Kafolat tamg'asi;
- Shartli belgilari;



- Ishlab chiqaruvchining yuridik manzili.
- Texnik shartlari ko'rsatilgan yo'riqnomasi

3.3 Sifat va qadoqlashga qo'yilgan talablar

Sifat standartlari mavjud bo'lishi kerak. Iste'molchi bilan kelishilgan holda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Har bir mahsulotni tashish va saqlashda, namga chidamli qadoqlash materialiga o'ralishi kerak.

4. Yetkazib Berish va qabul qilish talablari

Mahsulot qabul qilish xaridor hududida, komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Yetkazib berilayotgan mahsulot yangi qadoqlangan va mahsulot nishoni bo'lishi hamda sifatsiz bo'lmashligi kerak. Agar mahsulot sifatsiz bo'lsa xarid qiluvchi tomonidan qaytarilishi, yetkazib beruvchi tomonidan qaytarilishi yoki yetkazib beruvchi tomonidan almashtirilishi kerak.

5. Tashishga talablar

Avtotransport vositasi yuk tashish qoidalariga mos hamda yopiq holatda bo'lishi shart.

6. Kafolat muddati talablari

Yetkazib beruvchi tomonidan kafolat muddati kamida - 12 oy

7. Xavfsizlik talablari

Umumiy xavfsizlik talabi – bo'yicha GOST 12.0.001, xavfsizligi bo'yicha GOST 12.1.004

8. Sifat va klassifikasiya toifasidagi talablar

Mahsulot ko'rsatilgan texnik talablar va parametrlarga mos bo'lishi kerak. Sifatsiz mahsulotlar qabul qilinmaydi va qaytarib yuboriladi. Yetkazib berilayotgan mahsulotlar zavod qadog'ida va zavod nishonida bo'lishi kerak. Kafolat muddati ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

9. Yetkazib berish miqdori

-- Suv sarfi hisoblagichi (Dn 150) - 10 dona

Ishlab chiqdi:

STTL va JEX boshlig'i:



J. Qurbonov

STTL va JEX yet.mutaxassisi:

J. Qobilov

Kelishildi:

Bosh metrolog:



H. Mahmudov

IBX boshlig'i:



T. Diyorov

Bosh metrolog o'rinbosari:

O. Achilov

Yetakchi muxandis metrolog:



A. Jumaev

MTRB xizmati muhandisi:



Sh. Nizomov

